

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)
(2019-yil 1-fevral holatiga)

2019 yilning yanvar oyida viloyatda 729 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 379 taga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1891 ta (13,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15839 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1191	1159	59
 Sanoat	2078	2062	150
 Qurilish	1805	1804	63
 Savdo	3924	3908	352
 Tashish va saqlash	681	675	17
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1105	1096	39
 Axborot va aloqa	198	196	5
 Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	285	283	5
 Boshqa turlari	4856	4656	39



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2019 yilning 1 fevral holatiga 16123 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 24,3 % savdo, 12,9 % sanoat, 11,2 % qurilish, 7,4 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 6,9% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,2 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa, hamda 30,1 % tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarga soni eng ko'pi Termiz shahri (3446 ta), Denov tumani (1857 ta), Jarqo'rg'on tumani (1200 ta) va Sho'rchi tumani (1040 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Angor (789 ta), Muzrabot (730 ta) hamda Oltinsoy (633 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**






Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 15839 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1891 ta (13,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15839 tani tashkil etgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,7 % savdo, 13,0 % sanoat, 11,4 % qurilish, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,3 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % axborot va aloqa va 29,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarga soni eng ko'pi Termiz shahri (3390 ta), Denov (1819 ta), Jarqo'rg'on (1189 ta) Sho'rchi (1031 ta) va Termiz (1027 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Oltinsoy (619 ta), Muzrabot (717 ta) hamda Angor (781 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

01.02.2017 y.

• **13112 ta**

01.02.2018 y.

• **13948 ta**

01.02.2019 y.


• **15839 ta**



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2019 yil yanvar oyida 729 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 208,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Denov (138 ta), Termiz shahri (114 ta), Sho'rchi (63 ta) va Qumqo'rg'on (52 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Muzrabot (20 ta), Sariosiyo (28 ta) hamda Oltinsoy (32 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rilganda, eng ko'pi savdo (352 ta), sanoat (150 ta), qurilish (63 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (59 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (39 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa tashish va saqlash (17 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (5 ta) hamda axborot va aloqa (5 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.02.2017 y.		01.02.2018 y.		01.02.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	255	100,0	350	100,0	729	100,0
Savdo	79	31,0	64	18,3	352	48,3
Sanoat	35	13,7	54	15,4	150	20,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	41	16,1	29	8,3	59	8,1
Qurilish	28	11,0	43	12,3	63	8,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	22	8,6	31	8,9	39	5,3
Tashish va saqlash	22	8,6	13	3,7	17	2,3
Axborot va aloqa	4	1,6	4	1,1	5	0,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	0,4	10	2,9	5	0,7
Boshqa turlari	23	9,0	102	29,1	39	5,4

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda






TIJORAT KORXONALARNI

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019 yil 1 fevral holatiga 12375 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 5388 ta, oilaviy korxonalar – 792 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 5832 ta, va boshqalar 363 tani tashkil etadi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 188 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 129 taga yoki 318,6 % ga o`sgan. Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 76 tasi qo`shma korxonalar, 112 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to`gri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Termiz shahar (82 ta yoki jamidagi ulushi 43,6 %), Termiz (17 ta yoki 9,0 %) va Denov tumanlari (13 ta yoki 6,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Boysun (2 ta yoki 1,1%), Oltinsoy (3 ta yoki 1,6 %), Qumqo'rg'on (5 ta yoki 2,7 %) va Muzrabot (7 ta yoki 3,7 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2019 yil 1 fevral holatiga ko'rsak, eng ko'p qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 57 tani (30,3 %), sanoatda 52 tani (27,7 %), savdoda 38 tani (20,2 %) hamda boshqa faoliyat turlarida 14 tani (7,4 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 1 tani (0,5 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 tani (1,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 6 tani (3,2 %), tashish va saqlashda 8 tani (4,3 %) va qurilishda 10 tani (5,3 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, sanoat, savdo va boshqa faoliyat turlarida to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa

axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 16 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 taga ko'paygan.

Bunda, Afg'oniston Islom Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 9 ta, Tojikiston Respublikasi – 3 ta, Hindiston Respublikasi – 2 ta, Rossiya Federatsiyasi – 1 ta va Turkmaniston Respublikasi – 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019 yil yanvar oyida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

. Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (6 ta), sanoat (4 ta), savdo (2 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (1 ta) va boshqa faoliyat turlari (3 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**


	2018 yil yanvar		2019 yil yanvar	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
	1	100,0	16	100,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	x	x	6	37,5
Sanoat	x	x	4	25,0
Qurilish	x	x	x	x
Savdo	1	100,0	2	12,5
Tashish va saqlash	x	x	x	x
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	x	x	1	6,3
Axborot va aloqa	x	x	x	x
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	x	x	x	x
Boshqa turlari	x	x	3	18,7



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).


2019 yil 1 fevral holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 12287 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 fevral holatiga qaraganda 15,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 2896 tasi (23,6 %) Termiz shahri, 1430 tasi (11,6 %) Denov, 925 tasi (7,5 %) Jarqo'rg'on hamda 870 tasi (7,1 %) Termiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 12287 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3890 tasi (31,7 %) – savdo, 2038 tasi (16,6 %) - sanoat, 1793 tasi (14,6 %) - qurilish, 1124 tasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1088 tasi (8,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 666 tasi (5,4 %) - tashish va saqlash, 221 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 189 tasi (1,5 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1278 tasi (10,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



2019 yil yanvar oyida 716 tad kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 237,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Denov (135 ta), Termiz shahri (107 ta), Sho'rchi (63 ta) va Qumqo'rg'on (51 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muzrabot (20 ta), Sariosiyo (28 ta) hamda Oltinsoy (32 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda





Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (352 ta), sanoatda (150 ta), qurilishda (63 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (58 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (5 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (5 ta), hamda tashish va saqlashda (17 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 fevral holatiga 801 tani tashkil etib, ulardan 792 tasi yoki 98,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 23,2 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,2 % yoki 255 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,7 % yoki 196 tasi sanoat, 23,5 % yoki 186 tasi savdo, 11,9 % yoki 94 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,4 % yoki 11 tasi qurilish, 1,3 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,2 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 4,0 % yoki 32 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi yashash va ovqatlanish xizmatlari hamda sanoat, eng kami esa axborot va aloqa va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar

2019 yilning yanvar oyida jami 54 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 43 taga tugatish ko'paygan.

Ma'lumot uchun 2017 yilning yanvarda 129 ta, 2018 yilning yanvarda 11 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvarda ushbu ko'rsatkich 54 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 43 taga tugatish ko'paygan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yanvar oyining yillar kesimida dinamikasi, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 54 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 13 tasi (24,1 %) savdo, 9 tasi (16,7 %) sanoat, 5 tasi (9,3 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5 tasi (9,2 %) qurilish, 1 tasi (1,8 %) tashish va saqlashda hamda 21 tasi (38,9 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi savdo, sanoat va qishloq va o'rmon xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa tashish va saqlash faoliyat turiga to'g'ri kelgan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.02.2018 yil		01.02.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami	11	100	54	100	475
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	x	x	5	9,3	5
sanoat	1	9,1	9	16,7	8
qurilish	x	x	5	9,2	5
savdo	3	27,3	13	24,1	10
tashish va saqlash	4	36,3	1	1,8	-3
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	9,1	x	x	-1
axborot va aloqa	x	x	x	x	x
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	x	x	x	x	x
boshqa turlari	2	18,2	21	38,9	19

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019 yil yanvar oyida 40 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan 30 taga ko'p kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 13 tasi (32,5%) savdo, 9 tasi (22,5 %) sanoat, 5 tasi (12,5 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5 tasi (12,5 %) qurilishda, 1 tasi (2,5 %) tashish va saqlashda hamda 7 tasi (17,5 %) boshqa faoliyat turlari hissalari to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Qiziriq -3 ta ta hamda Sherobod tumanlarida -1 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

**Surxondaryo viloyati statistika
boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-85-90 (91)**